



PORA OLIH JINOYATI UCHUN JAVOBARLIKNING AYRIM MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20737738>

*Toshkent davlat yuridik universitetining
mustaqil izlanuvchisi Huquqshunoslik fakulteti
Maxsus huquqiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Egamberdiyev Feruzbek Asqarjon o'g'li
+998-93-778-76-56*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korrupsiyaga oid jinoyatlarning, xususan pora olish jinoyati uchun nazarda tutilgan javobgarlikning ayrim masalalari ochib berilgan, pora olish uchun javongarlik masalasini kuchaytirish va chet el davlatlarning tajribasi o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *pora olish, korrupsiya, javobgarlik, jinoyat kodeksi, mansabdor shaxs, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi.*

Аннотация. *В статье раскрываются некоторые вопросы ответственности за коррупционные преступления, в частности за взяточничество, усиливается проблема взяточничества, изучается опыт зарубежных стран.*

Ключевые слова: *взяточничество, коррупция, ответственность, уголовный кодекс, должностное лицо, стратегия «Узбекистан - 2030».*

Abstract. *This article reveals some issues of liability for corruption-related crimes, in particular, the crime of bribery, the issue of strengthening the criminal liability for bribery and the experience of foreign countries are studied.*

Keywords: *bribery, corruption, liability, criminal code, official, "Uzbekistan - 2030" strategy.*

KIRISH

Davlatimiz rahbari nutqida jamoatchilikka murojaat qilib, korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtdoshimizning vijdon ishi ekanini ta'kidladi.

Prezidentimizning ta'kidlashicha: "Hammamiz yagona kuch bo'lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san'at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun



jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga “jamiyat tanasidagi saraton” sifatida qarashi kerak”⁴².

U siyosiy institutlarni beqarorlashtiradi, iqtisodiy o‘shiga to‘sqinlik qiladi, fuqarolarning hokimiyatga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi va ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga yordam beradi. O‘zbekiston Respublikasida ham, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bo‘lgani kabi, korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida tan olingan⁴³. So‘nggi yillarda mamlakatda ushbu illatning oldini olish va unga barham berishga qaratilgan bir qator qonunchilik va institutsional choralar qabul qilindi, jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi va tegishli davlat dasturlari tasdiqlandi.

Amalga oshirilayotgan sa‘y-harakatlarga qaramasdan, korrupsiyaviy jinoyatlar muammosi o‘tkirlicha qolmoqda, ularni sodir etganlik uchun huquqiy javobgarlik mexanizmlarining samaradorligi masalalari esa chuqur ilmiy tahlilni talab etadi. O‘zbekistonda korrupsiya uchun javobgarlik sohasidagi milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish ushbu antikorrupsiyaviy siyosatning

samaradorligini baholash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan korrupsiyaviy jinoyatlar uchun huquqiy javobgarlik tizimini har tomonlama tadqiq etishga bag‘ishlangan. Tadqiqot doirasida korrupsiyaviy qilmishlar uchun javobgarlikning turli xillarini tartibga soluvchi Jinoyat kodeksi normativ-huquqiy hujjatlar normalari tahlil qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi – O‘zbekistonda korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik sohasidagi amaldagi qonunchilik va uni qo‘llash amaliyotini tahlil qilish, mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, korrupsiya uchun javobgarlikka tortishning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi.

Tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligi bir qator nazariy va amaliy xususiyatga ega omillar bilan belgilanadi:

1. Davlat siyosati: O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, jamiyatni demokratlashtirish va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar davom etmoqda. Ushbu o‘zgarishlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligiga bog‘liq. "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi va boshqa dasturiy hujjatlarda korrupsiyaviy holatlarni barcha sohalarda bartaraf etish bo‘yicha quyidagi vazifalar keltirilgan:

⁴² <https://president.uz/oz/lists/view/7924>

⁴³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.



““Transparency International” xalqaro tashkiloti tomonidan e’lon qilinadigan **Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida 50**

pog’onaga ko’tarilishga erishish.

Davlat xaridlari to’g’risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini 2 barobarga kamaytirishga erishish.

Davlat xaridlarini to’g’ridan-to’g’ri shartnoma tuzish orqali amalga oshirishda mablag’larni talon-toroj qilish holatlari, tovar va xizmatlarning narxi bozor qiymatidan oshib ketishining oldini olish bo’yicha jamoatchilik nazoratini to’laqonli joriy qilish.

100 foiz normativ-huquqiy hujjatlarning “korrupsiyadan xoli qonunchilik” tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta’minlash”⁴⁴.

Ushbu strategiya korrupsiyaviy jinoyatlarning dolzarbligini yana bir bora ko’rsatib qo’yadi.

2. Huquqni qo’llash samaradorligi: Butun antikorrupsiyaviy siyosatning samaradorligi ko’p jihatdan javobgarlik to’g’risidagi normalarning qanchalik samarali ishlashiga bog’liq. Amaliyotda korrupsiyaviy jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va isbotlash, qilmishlarni kvalifikatsiya qilish, mutanosib jazo tayinlash va uning muqarrarligini ta’minlashda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolarni

tahlil qilish va ularning yechimini topish korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirish uchun juda muhimdir.

3. Ilmiy va amaliy qiziqish: Korrupsiyaviy jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, javobgarlik turlarini chegaralash, jazoni individuallashtirish, korrupsiya natijasida yetkazilgan zararni qoplash masalalari doimiy ilmiy qiziqish uyg’otib kelmoqda va sudlar, prokurorlar, tergovchilar hamda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlari uchun katta amaliy ahamiyatga ega.

4. Korupsiyaviy jinoyatlarning statistikasi. Ushbu turdagi jinoyatlarning sonining oshishini kuzatishimiz mumkin. 2024-yilda mansabdor shaxslar quyidagi turdagi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan: “o’zlashtirish va o’zlashtirish yo’li bilan mulkni o’g’irlash – 2929 (2023 yilda – 2205, +32,8%); pora olish, pora berish, pora olishda vositachilik qilish – 353 (195, +81%); firibgarlik - 447 (272, +64,3%); mansab vakolatlarini suiiste’mol qilish – 226 (397, -43%) ...”⁴⁵.

Ushbu statistikada ko’rib turganimizdek, korrupsiyaviy jinoyatlarning o’sish tendensiyasi mavjud bo’lib, maqola mavzusining dolzarbligini yana bir bor belgilab beradi.

Korrupsiya chegaralarni bilmaydigan, turli shakllarda namoyon bo’luvchi, shu bilan birga tergov qilish va

⁴⁴ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O’zbekiston – 2030” strategiyasi. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

⁴⁵ <https://www.gazeta.uz/ru/2025/01/27/official-crimes/>



isbotlash uchun juda murakkab bo'lgan tizimdir. Korrupsiyaviy xatti-harakatlarning o'zi bevosita oshirilgan ijtimoiy xavfni ifoda etmasligi mumkin, ammo uning ildizlari jamiyatning barqaror mavjudligi, ijtimoiy munosabatlar va davlat faoliyatining eng xavfli dushmanlaridan biri hisoblanadi. Korrupsiyaviy faoliyat davlat va jamiyat farovonligiga tuzatib bo'lmaz zarar yetkazadi. Davlat, hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tizimi izdan chiqadi va buning oqibatida boshqaruv apparatida beqarorlik yuzaga keladi⁴⁶.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida «korrupsiya» tushunchasiga biror marotaba ta'rif berilmagan. Lekin, O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunida korrupsiyaga quyidagicha ta'rif beriladi: korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish⁴⁷.

Pora olish jinoyati JKning 210-moddasida nazarda tutilgan bo'lib, pora olish, ya'ni davlat organi, davlat

ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi deb ta'rif berilgan⁴⁸.

Ayrim maslalar. Ushbu turdagi jinoyatlarning soni oshib borishi biz huquqshunoslar uchun ham o'ziga hos belgi sifatida ishlashi kerak, chunki biz ushbu tendensiyaning jinoiy-huquqiy ahamiyatini aniqlab olishimiz kerak.

Amaliyotchilarning haqli ta'kidlashicha, poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyatlarning ortishi, avval korrupsiya uchun javobgarlikka tortilgan shaxslarning jazoni o'tab bo'lganidan so'ng yana yuqori lavozimlarni egallashlari bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin.

Mazkur tendensiya kriminologik nuqtayi nazardan shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaviy jinoyatlar uchun jazoni o'tab chiqqan shaxslar, bunday jinoyatlarni qayta sodir etishga ko'proq moyil bo'ladi. Chunki ular huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ish mexanizmini yaxshi tushunadilar va bu safar jazodan oson qutulib ketishga ishonadilar.

⁴⁶ Bratanovsky S.I., Green M.F. The need for a systematic approach to combating corruption in the state and municipal service. State and law. 2017;(1):103–106. (In Russ.)

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun. <https://lex.uz/docs/-3088008>

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453>



Ushbu muammo, korrupsion jinoyatlar uchun sudlangan shaxslarning jazoni o'taganlaridan keyin yana yuqori lavozimlarga qayta tayinlanishi bilan bog'liq holda yuzaga kelmoqda.

Shu munosabat bilan biz Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasida pora olish uchun javobgarlikni ko'rib chiqdik va shuni aniqladikki, Qozog'istonda Jinoyat kodeksining 366-moddasi 4-qismiga (pora olish) ko'ra o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilsa, ushbu jazo bilan birga mol-mulk musodara qilinadi hamda ma'lum lavozimlarni egallash yoki ma'lum faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan umrbod mahrum qilish chorasi ham qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210-moddasi 3-qismida esa pora olish jinoyati uchun faqat o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 290-moddasi 6-qismiga ko'ra, ayniqsa katta miqdorda pora olish jinoyati uchun uch milliondan besh million rublgacha bo'lgan jarima yoki ayblanuvchining uch yildan besh yilgacha bo'lgan davrdagi ish haqi yoki boshqa daromadi miqdorida, yoxud pora summasining sakson baravaridan yuz baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima belgilanadi hamda o'n besh yilgacha ma'lum lavozimlarni egallash yoki ma'lum faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish bilan sakkiz

yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi yoki yetmish baravarigacha bo'lgan pora miqdorida jarima bilan yoki jarimasiz, shuningdek o'n besh yilgacha lavozim egallash yoki faoliyat yuritish huquqidan mahrum qilish bilan yoki bu chorasiz jazolar nazarda tutilgan⁴⁹.

Shundan kelib chiqib, shuni ta'kidlashimiz mumkinki, O'zbekistonda faqat ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan, sud esa qo'shimcha jazo sifatida ma'lum huquqlardan mahrum qilishni ham belgilashi mumkin. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, Qozog'iston Respublikasida amaliyot biroz boshqacha. Qozog'istonning jinoyat qonunchiligiga ko'ra, Jinoyat kodeksining 366-moddasi 4-qismi asosida ozodlikdan mahrum qilish jazosi bir vaqtning o'zida mol-mulkni musodara qilish va umrbod ma'lum lavozimlarni egallash huquqidan mahrum qilish bilan birgalikda qo'llaniladi, bu esa jinoyat huquqining takroriy jinoyatlarning oldini olishdagi rolini kuchaytiradi.

Bizning fikrimizcha, kriminologik nuqtayi nazardan, Qozog'iston Respublikasining jinoyat qonunchiligida qo'llaniladigan jazo korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali usuli hisoblanadi. Garchi O'zbekistonda mol-mulkni musodara qilish jazosi nazarda tutilmagan bo'lsa-da, biz ma'lum lavozimlarni

⁴⁹ Rossiya Federatsiyasining Jinoyat Kodeksi.
https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/6411e005f539b666d6f360f202cb7b1c23fe27c3/



umrbod egallash huquqidan majburiy ravishda mahrum qilish choralarini qo'llashimiz mumkin.

Ba'zi olimlar bunday yondashuvni jazoni belgilashda insonparvarlik va adolat tamoyillariga zid deb hisoblashlari mumkin, chunki pora olishning yakka holati katta ijtimoiy xavf tug'dirmaydi. Biroq, biz o'z qarashimizni shunday asoslaymizki, O'zbekistonda korrupsiya va uning barcha ko'rinishlariga qarshi murosasiz va qat'iy kurash olib borilmoqda. Bundan tashqari, korrupsiyaning haqiqiy ijtimoiy xavfi vaqt o'tishi bilan, voqealar zanjiri orqali yuzaga chiqadi. Masalan, mansabdor shaxs talonchilik sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni javobgarlikdan ozod qiladi (uning otasi tergovchiga pora beradi), natijada tergovchi aybsiz shaxsni javobgarlikka tortadi. Bu esa davlatning huquqni muhofaza qiluvchi organlariga, uzoq muddatda esa butun davlatga bo'lgan ishonchni yemiradi.

Shu sababli, biz pora olish jinoyati og'irlashtiruvchi holatlar bilan sodir etilgan taqdirda, jazoni imkon qadar qat'iy qilish, ozodlikdan mahrum qilish bilan bir qatorda majburiy tarzda umrbod ma'lum lavozimlarni egallash huquqidan mahrum qilish choralarini jazo turi sifatida qo'llash lozim, deb hisoblaymiz.

Ozog'iston Respublikasida ushbu jazo, yani lavozimlarni egallash yoki ma'lum faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan umrbod mahrum qilinishi jinoyatning og'irlik darajasiga ko'ra

differentiatsiya qilinmagan. Boshqacha qilib aytqanda, QR JKsining 366-moddasi 1, 2, 3 va 4 qismlarida ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan birgalikda lavozimlarni egallash yoki ma'lum faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan umrbod mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan.

Xulosa. Yuqorida muhokama qilingan ma'lumotlarni umumiyashtirgan holda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 210-moddasining 3-qismiga quyidagi qo'shimchalar kiritishni taklif etish maqsadga muvofiq bo'lar edi: Pora olish:

a) juda ko'p miqdorda;

b) uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, — o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish **hamda lavozimlarni egallash yoki ma'lum faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan umrbod mahrum qilish bilan jazolanadi.**

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 210-moddasining barcha qismlariga "lavozimlarni egallash yoki ma'lum faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan umrbod mahrum qilish" qo'shish maqsadga muvofiq bo'lmas edi. Bunga sabab, jazoning asosiy maqsadi bu tarbiyalash bo'lib har qanday shaxs ikkinchi imkoniyatga ega bo'lishi kerak. Ammo, ushbu moddaning 3-qismiga gina kiritish O'zbekistonning liberallashtirish siyosatiga to'g'ri keladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Bratanovsky S.I., Green M.F. The need for a systematic approach to combating corruption in the state and municipal service. State and law. 2017;(1):103–106. (In Russ.);
3. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun. <https://lex.uz/docs/-3088008>;
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453>;
5. Rossiya Federatsiyasining Jinoyat Kodeksi. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/6411e005f539b666d6f360f202cb7b1c23fe27c3/;
6. <https://www.gazeta.uz/ru/2025/01/27/official-crimes/>;
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni;
8. <https://president.uz/oz/lists/view/7924>.